

## BOBURNOMADAGI GEOGRAFIK TASVIRLAR: HUDUDLAR TARIXI VA ULARNING O'RNI.

**Abdumalikova Nazokat**

Farg'ona Davlar Universiteti talabasi

**Kalit so'zlar:** Boburnoma, geografik tasvir, shaharlar, davlatlar, Farg'ona, Xuroson, Qobul, Andijon, tarixiy geografiya, Bobur.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida uchraydigan geografik tasvirlar, shahar va mamlakatlarning tarixiy o'rni hamda ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda Farg'ona, Xuroson, Andijon, Hindiston kabi hududlarning tabiiy-geografik xususiyatlari, aholisi, shaharsozlik darajasi va strategik mavqei haqida Boburiy kuzatishlar yoritilgan. Tadqiqot Boburning geografik tavsiflarining ilmiy ahamiyatini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari o'z davri geografiyasi va tarixiy jarayonlarini chuqur aks ettirgan noyob manba hisoblanadi. Asarda muallif o'zining harbiy yurishlari, siyosiy tajribalari va sayohatlari davomida uchragan shaharlar, davlatlar, tog'lar, daryolar, iqlim sharoitlari va xalqning turmush tarziga oid juda ko'p ilmiy qimmatga ega ma'lumotlarni qayd etadi. Bobur geografik tasvirlar berishda nafaqat kuzatuvchan, balki ilmiy fikrlashga moyil bo'lgan davlat arbobi sifatida namoyon bo'ladi. Uning tasvirlarida tabiiy sharoitlar, joyning relyefi, qishloq xo'jaligi salohiyati, shaharlarning strategik mavqei kabi ko'plab omillar batafsil yoritilgan.

Bobur o'z zamonasining ilg'or fikrlovchi tarixchisi, geografiya va etnografiyani puxta bilgan tadqiqotchisi edi. U har bir hududni tasvirlar ekan: tabiat, relyef, ob-havo, daryolar, ekinlar, aholi, shaharsozlik va urf-odatlar kabi jihatlarni batafsil yozib boradi. Bu esa asarni ensiklopedik ahamiyatga ega qiladi.

Boburning tug'ilib o'sgan makoni — Andijon, shuningdek Samarqand, Buxoro, Termiz, Xo'jand kabi shaharlar asarda keng tasvirlanadi.

“Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma‘muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Gido-girdi tog‘ voge bo‘lubtur. Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech joniptin qish yog‘iy kela olmas”, deya Farg‘onani ta‘riflab o‘tadi.

Bundan tashqari asarda Marg‘ilon haqida ham gap ketadi. “ Andijonning g‘arbidadur. Abdijondan yeti yig‘och yo‘ldur. Anori va o‘rug‘I asru ko‘p-xo‘p bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor. Marg‘inonning Rushdon otliq kentidindur”, deya ta‘riflaydi. Ya‘ni bu yerda anori va o‘rigi, Rishodiy haqida ham so‘z bormoqda.

Asarda Xo‘jandni ham gapirib o‘tadi. “ Yana biri Xofjanddur. Andijondin g‘arb sorig‘a yigirma besh yig‘och yo‘ldur. Xofjanddin Samarqand ham yigirma besh yig‘och yo‘ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol Xofandtindurlar”.

Bundan tashqari Xo‘jandni mevasi, qushlari, iqlimi haqida ham gapirib o‘tadi. Ya‘ni oq kiyik, bug‘u maral, qirg‘ovul va tovushqon u yerda ko‘pligini, havosi tozaligini va kuz paytlari bezgak ko‘p bo‘lishi haqida ham so‘z yuritadi. Ko‘p bezgak bo‘lishi havoning sovuqligidandur deb aytib o‘tadi.

“Boburnoma”da tasvirlangan shahar va mamlakatlar geografiyasi Bobur shaxsining keng dunyoqarashi, ilmiy kuzatuvchanligi va davlat boshqaruvidagi tajribasi bilan uyg‘unlashgan. Asar XV–XVI asrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonning tabiiy, siyosiy va iqtisodiy holatini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2017.
2. Bobur, Z. M. Bobur-noma (forscha matn va tarjima). N.Mallayev tahriri ostida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1969.
3. Mallayev, N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 1993.

4. Karimov, I. Boburiylar saltanati tarixi. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Shamsiyev, A. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
6. Vohidov, R. O‘zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Saidov, U. Markaziy Osiyo geografiyasi va tarixiy o‘zgarishlar. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.